______________________ hokimligi
maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi
__________________ maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi
__-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
______________________________ning
20__-20__-o‘quv yilida 10-sinflar uchun ona tili fanidan IV chorak

# DARS ISHLANMALARI

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘________ ______________________**

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf ona tili fanidan**
**IV chorak taqvimiy mavzu rejasi**

| № | Mavzu nomi | Soat | Sana | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Odam va ekologiya. Matn ustida ishlash. Matnni qisqartirish | 1 | | |
| 2. | Insonning tabiatga ta’siri. Orol fojiasi. Tushunishga ta’sir etuvchi omillar. | 1 | | |
| 3. | Qizil kitob. Nutqiy vaziyatlarda muloqot qilish | 1 | | |
| 4. | Greta Tunberg. Matnni kengaytirish | 1 | | |
| 5. | Mustahkamlash | 1 | | |
| 6. | **7-nazorat ishi** | 1 | | |
| 7. | Takrorlash. O‘qish savodxonligi | 1 | | |
| 8. | Takrorlash. Grammatik savodxonlik | 1 | | |
| 9. | Takrorlash. Yozish savodxonligi | 1 | | |
| 10. | Takrorlash. Nutq so‘zlash savodxonligi | 1 | | |
| 11. | Takrorlash. O‘qish savodxonligi | 1 | | |
| 12. | Takrorlash. Grammatik savodxonlik | 1 | | |
| 13. | Takrorlash. Yozish savodxonligi | 1 | | |
| 14. | Takrorlash. Nutq so‘zlash savodxonligi | 1 | | |
| 15. | **8-nazorat ishi** | 1 | | |
| 16. | Nazorat ishi tahlili | 1 | | |

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Odam va ekologiya. Matn ustida ishlash. Matnni qisqartirish**
**Darsning maqsadi:**
**Ta’limiy:** o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.
**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.
**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.
**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**:
jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish;
tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish.
**Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:**
ona tili fanining rivojlanish tarixi, uning taraqqiyot qonuniyatlaridan xabardor bo‘lish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.
**Dars uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.
**Dars metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.
**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.
**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.
**III. Yangi mavzu bayoni:**
Topshiriq.Quyidagi matnni diqqat bilan o‘qing.
Quyuq o‘rmonzorlarni, serqirra tog‘larni, baland-past qir-adirlarni, keng yaylovlarni sayr qilib, u yerda yashovchi turfa mavjudotlarni tomosha qiligan hamda noziknihol qirqquloqlar-u bahaybat daraxtlar, mittiqurt-qumursqalar-u beso‘naqay hayvonlar xilmaxilligining guvohi bo‘lgan bo‘lsangiz, siz ekotizimning mumtoz namunasidan bahramand bo‘lgansiz. Ekoolam faqatgina so‘limo‘rmon, jilovlanmagan yovvoyi tabiat yoki go‘zal manzara emas, balki karavot ostida yashaydigan suvarak, non yuzasida paydo bo‘lgan zamburug‘, hatto idish tubida hosil bo‘lgan mog‘or ham uning namunalaridir. Sinchiklab kuzatsangiz, atrof-muhitda tirik mavjudotlarning tarqalishi va ko‘payishini tushunasiz, tushuntira olasiz. Masalan, sizning tomorqangizdagi nabototolami dunyoning narigi tomonida yashayotgan tengdoshingiz bog‘idagi o‘simliklar, hayvonlar va

zamburug‘lardan o‘zgacha ham turfadir. Tabiatdagi bunday farqlilik organizmlarning o‘zaro ta’siri, ularning fizik, geografik va biologik olami bilan bog‘liq.





**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

53.1-mashq. Quyidagi savollarga matn asosida javob bering, fikrlaringizni og‘zaki bayon qiling.

1.“Ekoolam” deganda nimani tushundingiz?

2.“Ekotizimga odamzodning sun’iy aralashishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Mintaqamiz misolida izohlay olasizmi?

3.Tabiatdagi yashash uchun kurash qonuniyati hukm suradigan muhitda sanitar – tozalovchi vazifasini bajaruvchi hayvon va qushlarning insoniyatga qanday yordami bor, deb o‘ylaysiz?

4.Ona tabiat o‘zining go‘zalligini, tarovatini yildan yilga yo‘qotib borayotganini guvohi bo‘lyapsizmi? Buning boisi nimada deb hisoblaysiz?

5.Ayrim insonlar yoki turli tashkilotlar o‘z manfaatlari yo‘lida ekoolamga atay zarar berishmoqda. Bunday hollarga munosabatingizni bildiring.

6.Sayyoramiz ekotizimini asrab qolish uchun nimalar qilish kerak?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ _____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Insonning tabiatga ta'siri. Orol fojiasi. Tushunishga ta'sir etuvchi omillar.**
**Darsning maqsadi:**
**Ta'limiy:** o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.
**Tarbiyaviy:** o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.
**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.
**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**
**Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:**
ona tili fanining rivojlanish tarixi, uning taraqqiyot qonuniyatlaridan xabardor bo'lish.
**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**
shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
kundalik faoliyatda turli jadval va diagrammalarni o'qiy olish, undan foydalanish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.
**Dars uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.
**Dars metodi:** guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.
**Dars jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.
**Darsning borishi:**

| № | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O'tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.
**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.
**III. Yangi mavzu bayoni:**
Topshiriq. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.
1. Quyidagi Orol dengizining rasmlarini ko'rib, nimani tushundingiz?



2. “Insonning tabiatga ta’siri” deganda nega ko‘pchilik tabiatga zarar keltirishni tushunadi? Buning sababi nimada?
3. Bir jumlani ko‘pchilik har xil tushunadi. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?
4. Quyidagi she’riy parcha yordamida rasmlarga sarlavha topib, o‘z munosabatingizni qisqa jumlada ifodalang:
Xasta holing, xasta o‘yga botursan, Bemajol, bemador, behol yotursan.
Doding bilan dunyoni uyg‘otursan, Ketib qolma, Orolim! (Muhammad Yusuf)

TIL SANDIG‘I

**UNUTILGAN SO‘ZLAR**

*Tilmiz tarixida qo‘llanib, hozirda uning o‘rnini boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar egallagan birliklarimiz ham bor. Quyida ana shunday* ***“Unutilgan so‘zlar”****dan namunlar keltiramiz:*

***im – parol // o‘ron – parol***
***archi – sumka***
***utug – dazmol, utyuk***
***ulatu – dastro‘mol***

*N.Jo‘raqo‘ziyevning “Im bilsa, er o‘lmas” maqolasi asosida tayyorlandi.*




1994- yilda braziliyalik fotojurnalist Sebastyan Salgado Ruandadagi qatliom dahshatlarini suratga olib, uyiga qaytdi. U Braziliyaning o‘zi tug‘ilgan Minas-Jyerays hududidagi cheksiz o‘rmonda xotirjamlikda yashab, o‘ziga kelmoqchi bo‘ldi. Ammo u bu yerda ko‘rganidan dahshatga tushdi: bir necha yil ichida yam-yashil va jonivorlarga boy bo‘lgan o‘rmon qurigan, shovullagan daryo tashlandiq yerga aylangan, yovvoyi tabiat ham izsiz yo‘qolgan edi. Bir paytlar quyuq o‘rmon bo‘lgan yerning atigi 0,5 % hududidagina daraxtlar qolgandi. Shunda uning turmush o‘rtog‘i Leliya o‘rmonni avvalgi holiga qaytarish uchun harakat qilishlari kerakligini aytdi. Sebastyan bu taklifni qo‘llab-quvvatladi va oila ilgarigi o‘rmon hududiga daraxt ekishga qaror qildi. Salgadolar dastlabki nihollarni 1998- yilda ekishdi, ammo bunday ulkan hajmdagi ish uchun ikki kishi kamlik qilardi. Maydoni 1 754 akr bo‘lgan o‘rmonni tiklash uchun ular 24 kishini yollashdi. Shu bilan birga Sebastyan bu loyihani moliyalashtiradigan va qo‘llab-quvvatlaydigan hamkorlarni ham izladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

Quyidagi rasmni diqqat bilan kuzatib, u asosida “Inson va tabiat munosabati” mavzusida 10 ta savol tuzing, savollar ritorik so‘roq gap shaklida bo‘lsin.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uygа vazifani e’lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

**Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**31 listdan iborat ona tili fanidan 10-sinf IV chorak konspektni to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**

Telegram kanalimiz:

**@Maktablar_uchun_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**




**DIQQAT!!!**

**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To‘liq holda olganingizdan so‘ng:**
**Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet orqali veb-saytlarga joylamang.**
**Kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo‘ling!***

***Bizda maktablar uchun  quydagi hujjatlar mavjud.***

1. **1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
2. **1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
3. **Sinf rahbar hujjatlari**
4. **Metodbirlashma hujjatlari**
5. **Ustama hujjatlari**
6. **1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
7. **1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
8. **Maktab ish hujjatlari**
9. **Direktor ish hujjatlari**
10. **MMIBDO‘ ish hujjatlari**
11. **O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
12. **Psixolog hujjatlari**
13. **Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
14. **Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
15. **Besh tashabbus hujjatlari**
16. **Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**